




## Jizzax viloyati statistika boshqarmasi

# 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida QURILISH ISHLARI

Joriy yilning yanvar - sentyabr oylarida Jizzax viloyatida jami **1025,4 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **107,3** foizni tashkil etdi.


Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan **31,2 mlrd.so'm** qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **3,1** foizni hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **113,2** foizni tashkil etdi.

Kichik korhona va tshkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **59,3** foizi yoki **608,3 mlrd.so'm** to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **119,8** foizni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa **37,6** foiz yoki **385,9 mlrd.so'm** to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan **91,1** foizni tashkil etdi.



Jami qurilish ishlari 100%

## Hududlar kesimida qurilish ishlari (jamiga nisbatan foizda)




Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining ulushi 2,6 foizni tashkil etdi. Viloyatda asosan qurilish ishlarining asosiy qismi kichik tashkilotlar va mikrofirmalar tomonidan bajarilib, jami qurilish ishlarining 59,3 foizini tashkil etdi. Norasmiy sektor tomonidan esa 37,6 foizga qurilish ishlari

bajarildi.

Jizzax shahrida kichik tashkilotlar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining ulushi eng katta bo'ldi - 32,3 foizni. Mazkur hududda yirik tashkilotlarning ulushi 2,6 foiz va norasmiy sektorning ulushi 7,1 foizni tashkil etdi.

## Hududlarda qurilish ishlarining o'sish suratlari (o'tgan yilning mos davriga nishatan foizda)



Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o'sish surati Jizzax shahri hamda Zomin tumanlarida kuzatildi.


Jizzax shahrida yakka tartibda turar joy qurilishining jadal borishi tufayli o'sish surati o'tgan yilning mos davriga

nisbatan 120,8 foiz bo'lishi ta'minlandi.

Zomin tumanidagi yuqori o'sish surati, yani 126,2 foiz kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan qurilgan turar joy uylar qurilishi, va boshqa loyihalarning bajarilishi natijasidir.

### **Hududlar kesimida qurilish ishlari (mlrd.so'm)**

#### **jami qurilish ishlari**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami quriliash ishlari hajmida 78,4 foizni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,3 foiz punktg'a ko'paydi.

Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi joriy davrda 15,3 foizni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,4 foiz punktg'a kamaydi, mahsus qurilish ishlari hissasiga esa 6,3 foizga to'g'ri keldi

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlari tarkibi**  
*(jamiga nisbatan foizda)*

- 
- Fuqorolik qurilish ob`yektlarini qurilish bo`yicha qurilish ishlari **15,3%**
  - Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari **6,3%**
  - Binolar va inshoatlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari **78,4%**